

## MAKTABLARDAGI TO‘QUVCHILIK TO‘GARAGIGA O‘QUVCHILARNING QIZIQISHI

**Rahmonova Xolida Shodiyevna**

Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan

1-son kasb hunar maktabi

[Rahmonova@gmail.com](mailto:Rahmonova@gmail.com)

**Sultanova Aziza Akmalovna**

Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan

1-son kasb hunar maktabi

[Aziza@gmail.com](mailto:Aziza@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda yoshlarimiz uchun davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilgan ekan, bu imkoniyatlardan o‘z vaqtida foydalangan holda o‘quvchilarni kasb-hunar tanlashlariga ko‘maklashish maqsadida maktablarda faoliyat yuritayotgan to‘garak ishlari hamda o‘quvchilar ijodiyot markazlari bilan hamkorlikdagi ishlarni takomillashtirish zarur. Jumladan, yurtimizda yosh avlodni va uning manfaatlariga ustuvor vazifa sifatida qaralayotgani ko‘rsatilayotgan beqiyos e‘tibor bugungi kunda o‘zining yuksak samarasini bermoqda.

**Kalit so‘zlar:** o‘quvchi, ustoz-shogird, kasb-hunar, to‘garak.

### АННОТАЦИЯ

В связи с тем, что сегодня государством созданы широкие возможности для нашей молодежи, необходимо своевременно использовать эти возможности и совершенствовать работу кружков и центров творчества учащихся в школах с целью содействия учащимся в выборе профессии. В частности, оказываемое в нашей стране приоритетное внимание развитию молодого поколения и его интересам сегодня дает свои высокие результаты.

**Ключевые слова:** ученик, учитель-ученик, профессия, кружок.

### ABSTRACT

Since the state has created wide opportunities for our youth today, it is necessary to improve the activities of the circle in schools, as well as work in cooperation with the Centers of creativity of the pupils, in order to facilitate the professional selection of the pupils using these opportunities in a timely manner. In particular, the incomparable

attention shown in our country to the young generation and its interests as a priority task is giving its high results today.

**Key words:** schoolboy, teacher-pupils, professional, circle.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, o'quvchilarni mustaqil va ongli kasb-hunar tanlashiga ko'maklashish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi: [1]

Maktablarda faoliyat yuritayotgan to'garaklar hamda mehnat ta'limi darslari jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishlarini natijaviyligini va samaradorligini oshirishni ta'minlash;

o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini maktab pedagogika kengashi, kasb-hunarga yo'naltirish komissiyalari yig'ilishlarida ko'rib chiqish:

o'quvchilarni iqtidor, iste'dod, qobiliyat, layoqatlarini aniqlash asosida fan, kasbiy va badiiy-ijodiy hamda milliy hunarmandchilik to'garaklariga jalb qilish:

o'z ishining mohir ustalari bo'lgan hunarmand va tadbirkor ayollar bilan hamkorlikda "Ustoz-shogird" maktablarini tashkil etish;

tadbirkor, hunarmand ayollar tomonidan tashkil etilgan ustaxona, tikuv sehlariga ekskursiyalar uyushtirish, ularning ish uslublari, shart sharoitlari hamda mehnat qurollari bilan tanishtirish;

sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, to'garak rahbarlari va ota-onalar bilan hamkorlikda "O'quvchilarni jamiyatning yetakchi kuchidir!" mavzusida tadbir tashkil etish;

"Eng namunali to'garak!", "Eng yaxshi-mohir qo'llar!", "Eng yaxshi dizayner!" va "Balli qizlar!" ko'rik-tanlovlarini tashkil etish:

"Kasbim mening-faxrim mening!" mavzusida seminar tashkil etish va o'tkazish:

Badiiy ijod, san'at va sport yo'nalishlari bo'yicha ijod qiluvchi o'quvchi qizlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tuman (shahar), viloyat, respublika bosqichlarida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlarda ishtirok etishini ta'minlash;

O'quvchilarning mustaqil va ongli kasb tanlashlariga ko'maklashish hamda psixologik treninglar o'tkazish, shuningdek, muloqotchanlik (kommunikativ) qobiliyatlarini shakllantirish bo'yicha individual va guruh maslahatlar berish;

"Men tanlagan kasbimga yaqinlarimning munosabatlari" mavzusida insholar tanlovini o'tkazish;

"Farzandim kelajagi-mening kelajagim!" hamda "Farzandning kasb-hunar tanlashida ota-onaning roli!" mavzularida ota-onalar yig'ilishlarini tashkil etish;

Farzandlari tanlagan kasb-hunarga ota-onalarning munosabatlarini aniqlash maqsadida o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan so'rovnomalar o'tkazish;

O'quvchilarni turli kasblar va ularga qo'yiladigan talablar (tibbiy, psixologik, psixofiziologik) bilan tanishtirish;

Kasbiy psixologik-pedagogik tashxis metodikalari asosida qiziqishlarini aniqlash bo'yicha monitoring olib borish;

So'rovnomalar va kasbiy-psixologik-pedagogik tashxis natijalari asosida korreksion guruhlar tashkil etish;

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va maktab devoriy gazetalarida yoritish.

Ayniqsa imkoniyati cheklangan yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda ular bilan olib borilayotgan to'garaklarning alohida o'rni, ahamiyati bor. Bu borada imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar o'ziga xos mas'uliyatni talab etadi. O'quvchilarni to'garaklarga jalb etishning birinchi qoidasiga ko'ra avvalo o'qituvchi yoki tarbiyachi o'quvchining mehrini qozona olishi kerak. Tarbiyaning bosh yordamchisi-mehrdir. Bolaga ko'rsatilgan mehr shak-shubhasiz uning tarbiyasi, o'rganadigan bilimining samarasi kafolatdir.

O'quvchining to'garak mashg'ulotlarida faol bo'lishi, qiziqishlarining o'sishida uning o'z kuchiga ishonishi katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchining dadilligi va jur'atliliigi-uning uchun ulkan baxtdir. [2]

Imkoniyati cheklangan bolalar huddi erkatoiy va o'ta g'amxo'rlik ko'rsatilgan bolalar kabi o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Har qanday sharoitda ham bola o'z o'qituvchisiga, unga to'garak mashg'ulotlarini o'tayotgan ustoziga suyanishi kerak. To'garak mashg'ulotlarini olib borishda maqtov va rag'bat eng afzal intizomiy choradir. Agar o'quvchi to'garak mashg'ulotlariga qiziqish bildirmasa, unga mashg'ulotning qanchalik afzal ekanligini tushuntira bilish va amaliyotga jalb qilish kerak. To'garak mashg'ulotlarini olib borish jarayonida o'qituvchilar uchta asosiy ko'nikmalarni egallashlari lozim:

O'quvchini to'garak mashg'uloti davomida eshita olish, ya'ni tinglay olish ko'nikmasi;

O'quvchi tushunishi uchun o'z shaxsiy ehtirosi va so'zlarini tushunarli ifoda qila olish ko'nikmasi;

O'quvchini katta va kichik yutuqlari bilan maqtash va uni bu yutuqlari bilan mag'rurlanishiga imkon yaratib berishi kerak.

O'quvchi to'garak mashg'ulotlarida olgan bilimlari, muvaffaqiyati boshqalarga qanchalik kichik bo'lib tuyulmasin, biz uchun ular ulkandir. Bizning o'quvchilarimiz boshqacha sur'atda ulg'ayadilar, ular ba'zi ko'nikmalarni kechroq o'zlashtiradilar, ba'zilarini esa o'zlashtirishda qiynaladilar, biroq oldinga intilishda qo'yilgan har qanday qadam bu bayramdir! O'quvchingizning yangi harakati, so'zi, tabassumi, kutilmagan muloyimligi, o'rgangan mashg'uloti bular bizning kichik mo'jizalarimiz desak adashmagan bo'lamiz. Bunday xursandchiliklarni yon-atrofdagi do'stlari bilan o'rtoqlashish o'quvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi barchamizga ma'lum. Eng asosiysi,

o‘z o‘quvchilaringizni to‘garak mashg‘ulotlaridagi o‘rgangan bilimlari bilan faxrlaning, ular hammasini his qiladi. To‘garak mashg‘ulotlarida tikuvchilik, pazandachilik, to‘quvchilik yoki boshqa zamonaviy kasblar bilan shug‘ullanadimi, asta-sekin bularning sevimli mashg‘ulotiga aylanib boradi. Misol tariqasida “to‘quvchilik” to‘garagini oladigan bo‘lsak, qo‘lda to‘qish bu ota-bobolarimiz tomonidan bizgacha shakllanib kelgan sanoat turidir. Qo‘lda to‘qish jarayoni u qadar murakkab bo‘lmaganligi, qo‘l harakati bilan bir yerda o‘tirgan holatda olib borilishi zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarning bu to‘garakda qiynalmasdan mashg‘ulotlar olib borishlari uchun qulay sharoit yaratadi. To‘qish mashg‘ulotlarida qatnashish kasbiy hamda aqliy faoliyatni yaxshilashda ko‘maklashadi. To‘qish asablarni tinchlantirish uchun ham foydalidir. Bu to‘garakning maqsadi imkoniyati cheklangan ko‘zi ojiz o‘quvchilar kelgusida jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va hayot yo‘lini belgilab olishda yordam berishdir. [3]

Albatta, yoshlarni bo‘sh vaqtlarida foydalanishga, mehnatga jalb etish, ko‘plab yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. O‘quvchilarni o‘ziga, ertangi kunga bo‘lgan ishonchini o‘stiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Kasbiy fanlar metodikasi. Manaviy-ma’rifiy, ilmiy metodik nashr 2011yil.
2. Kollejlardagi to‘quvchilik to‘garagiga o‘quvchilarning qiziqishi.2010yil Toshkent
3. “To‘quvchilik” to‘garak mashg‘ulotidan olingan fikr mulohazalar. Farg‘ona 2009.